



**Fermerlar  
Maktabi**



S.Mahammadiev, H.Artikov, N.Yakubov

**TUPROQSUNOSLIK**  
**fanidan laboratoriya mashg'ulotlari uchun**

**USLUBIY QO'LLANMA**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
VA  
“TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT  
MUASSASI SHAKLIDAGI “AGROBIZNES VA BOSHQARUV”  
YO'NALISHI BO'YICHA AGROSANOAT MAJMUI UCHUN RAHBAR  
VA MUTAXASIS KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNI  
MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI”**

S.Mahammadiev, H.Artikov, N.Yakubov

**hamkorlikda ilmiy vositalaridan keng foydalangan holda tayyorlangan  
TUPROQSUNOSLIK  
fanidan laboratoriya mashg'ulotlari uchun**

**USLUBIY QO'LLANMA**

**Toshkent – 2021**

Uslubiy qo'llanmada qishloq xo'jaligi mahsulotlarni yetishtirishda ilmiy ishlarning analitik informatsiyalar sifati va hajmiga sezilarli darajada talab va oshib boradi. Bu o'z-o'zidan laboratoriya da yuqori aniqlikdagi va yuqori ishlab chiqarishga mos usullarni joriy qilishdan tashqari texnika priborlar, reakti sifatini ham oshirishni taqoza qiladi. Bunda "Tuproqshunoslik" fani yetakchi o'rinda turadi. Har xil usullar ishlab chiqish, tuproqqa qo'llaniladigan oziq elementlar haqida keng qamrovli ma'lumotlar tuplash mumkin.

Uslubiy qo'llanma oliy o'quv yurtlarining Tuproqshunoslik ta'lim yo'nalishi, Tuproqshunoslik, Eksperimental agrokimyo magistratura mutaxassisligi va qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yurituvchi xodimlarga mo'ljallangan.

**Mualliflar:** katta o'qit. q.x.f.f.d. S.Mahammadiev  
katta o'qit. H.Artikov  
Markaz direk. N.Yakubov

**Taqrizchi:** q.x.f.d., akademik D.Sattarov

*Uslubiy qo'llanma Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti  
Tuproqshunoslik kafedrasining 2021 yil 5 oktiyabrdagi (2-sonli bayonnomasi)  
majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.*

## KIRISH

Tuproq unumdorligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligi va uning sifatini oshirishirish masalasini echish imkonsiz, agarda analitik va texnologik tadqiqotlar olib bormasak. Tadqiqotlarni metodik va tashkiliy jihatdan to'g'ri qo'yish isbotlangan, tekshirilgan ishonchili ma'lumotlar berish bilan birga dehqonchilikni optimallashtirish asnosida yuqori sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlarni etishtirish imkonini beradigan istiqbolli materiallar bilan boyitadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarni etishtirishda ilmiy analitik informasiyalarning sifati va hajmiga sezilarli darajada talab va oshib boradi. Bu o'z-o'zidan laboratoriyada yuqori aniqlikdagi va yuqori ishlab chiqarishga mos usullarni joriy qilishdan tashqari texnika priborlar sifatini ham oshirishni taqoza qiladi.

Ishlab chiqarishda barcha hollarda ham zamonoviy priborlar, reaktivlar, usullardan foydalilanlavermaydi. Shuning uchun zamonoviy priborlar, reaktivlar va usullar bilan birga ilgariga usullar ham talabalarga tushuntirilib borilishi zarur.

Yuqoridagi holatni e'tiborga olib uslubiy qo'llanmadan Oliy o'quv yurtlarining "Agrokimyo va tuproqshunoslik" bakalavr yo'nalishi talabalariga "Tuproqshunoslik" fanidan laboratoriya mashg'ulotlarining yangi va eski usullari, priborlar paralel ravishda o'rgatilib boriladi.

### I-LABORATORIYA ISHI.

**Laboratoriyada ishlash havfsizlik qoidalari bilan tanishish. Laboratoriyada ishlataladigan asbob va uskunalar bilan tanishish. Tahlil uchun tuproq namunalarini olish va tayyorlash**

**Laboratoriyada texnika xavfsizligi qoidalari. Laboratoriya asbob-uskuna va jihozlari bilan tanishish xamda ulardan foydalanishni o'rganish**

Tuproqshunoslik laboratoriysi oliy o'quv yurtlarida, kriminalistlar va qishloq xo'jaligi xodimlarini tayyorlaydigan o'quv yurtlarida, va har bir viloyat, tuman va xo'jaliklarida tashkil etilgan.

Kimyo - xalq xo'jaligining turli sohalariga kirib borgani uchun ham, uni har xil soha mutaxassislar bilishlari kerak. Sohaga tegishli bo'lgan kimyo laboratoriyalari aksariyat ilmiy tadqiqot institutlarining asosiy qismidir.

Tuproqshunoslik laboratoriylarida ishlash tartib-qoidalari bilan tanishishdan avval ularni kerakli uskunalar bilan jihozlash va albatta, texnika xavfsizligi qoidalari to'g'risida ma'lumot berib o'tamiz.

Birinchi navbatda, barcha laboratoriya xonalarida qanday analiz bajarilishidan qat'i nazar ventilyatsiyali va mo'rili shkaflar ishlab turishi kerak. Bu shkaflarda o'tkir hidli yoki xavfli moddalar bilan tajribalar o'tkaziladi.